

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 4

2025

APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN  
ACCES

ULRICH'S WEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDU  
DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
1931



TULON KARIMOV NOMIDADI  
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI  
TDTU

1955  
TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT DAVLAT  
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU  
TOSHKENT  
AKHİMET - QURİLLİ  
UNIVERSİTETİ

TJU  
TOSHKENT KİMYO - TEKNOLOGİYA  
AKHİMET - QURİLLİ  
UNIVERSİTETİ

TJU  
TOSHKENT POLİTEKNIK İNSTITUTI  
DZAKİ POLİTEKNIK İNSTITUTI  
1991



# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

## BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

## TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otobek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil  
28-avgustdagি 360/5-son  
qarori bilan “Dissertatsiyalar  
asosiy ilmiy natijalarini chop  
etishga tavsiya etilgan milliy  
ilmiy nashrlar ro'yxati”ga  
texnika va iqtisodiyot fanlari  
bo'yicha “Muhandislik va  
iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga  
kiritilgan.

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
<b>Юсупов Файзулла Якубович</b>	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
<b>Quziev Ravshan Ramazanovich</b>	
Davlat xardilari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari .....	26
<b>Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li</b>	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar .....	31
<b>Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi .....	37
<b>Qodirov Iskandar Alisher o'g'li</b>	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения .....	41
<b>Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович</b>	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
<b>Fozil Xolmurotov</b>	
Suv resurslarini tejashda aqlii sug'orish tizimlarining ahamiyati .....	62
<b>Abdullahov A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich</b>	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari .....	68
<b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture .....	72
<b>Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna</b>	
Mетодология оценки инновационной деятельности .....	78
<b>Алиева Эльнара Аметова</b>	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
<b>Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li</b>	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
<b>Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li</b>	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности .....	97
<b>Маликов Ауезхан Жорабекович</b>	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili .....	106
<b>Boltayeva Dilafza Jumaqulovna</b>	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi .....	114
<b>Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich</b>	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisdoi siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari .....	123
<b>Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich</b>	



# YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH, DAVLAT IQTISDOIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH VA SIRKULYAR IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Ilmiy rahbar:

**Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich**

Falsafa fanlari doktori, professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari IMRAD tamoyillari asosida yoritiladi. Kirish qismida yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik kontseptsiyasining dolzarbliji ta'kidlangan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tahlil, hujjatlarni taqqoslash va muqobil energiya siyosatlarining baholash usullari qo'llanilgan. Tahlil qismida sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, IoT texnologiyalarining integratsiyasi hamda suv resurslarini boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Mualliflar tomonidan davlat siyosatini takomillashtirish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, qayta tiklanadigan energiya, O'zbekiston iqtisodiyoti, energiya samaradorligi, IoT, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish.

**Abstract:** This article explores the key directions for ensuring sustainable economic growth in Uzbekistan in the context of transitioning to a green economy. The introduction highlights the urgency of green economy principles and ecological stability. The research methodology involves statistical analysis, policy comparison, and evaluation of renewable energy policies. The results section elaborates on the effectiveness of circular economy implementation, integration of renewable energy sources, adoption of IoT-based technologies, and water resource management practices. The discussion provides concrete recommendations for improving national economic policy, enhancing energy efficiency, and ensuring the rational use of natural resources. The study contributes to the discourse on the sustainable development of resource-dependent economies through green transformation.

**Keywords:** green economy, ecological sustainability, renewable energy, Uzbekistan's economy, energy efficiency, IoT, natural resources, sustainable development.



**Аннотация:** В данной статье рассматриваются ключевые направления обеспечения устойчивого экономического роста Узбекистана в условиях перехода к зелёной экономике. Во введении подчёркивается актуальность принципов зелёной экономики и экологической устойчивости. В качестве методов исследования использованы статистический анализ, сопоставление нормативных документов и оценка эффективности политики в области возобновляемых источников энергии. В разделе результатов освещаются вопросы внедрения принципов циркулярной экономики, расширения использования возобновляемых источников энергии, интеграции IoT-технологий, а также механизмы управления водными ресурсами. В заключении представлены конкретные предложения по совершенствованию государственной экономической политики, повышению энергоэффективности и рациональному использованию природных ресурсов.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, экологическая устойчивость, возобновляемая энергия, экономика Узбекистана, энергоэффективность, IoT, природные ресурсы, устойчивое развитие.

## KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda kuzatilayotgan iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi va atrof-muhitning degradatsiyasi yashil iqtisodiyotga o'tishni strategik zaruratga aylantirmoqda. Xususan, resurslarga boy, ammo ekologik jihatdan zaif holatdagi mamlakatlar uchun bu jarayon nafaqat muqarrar yo'l, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasidir. Yashil iqtisodiyot konsepsiysi an'anaviy iqtisodiy modeldan farqli ravishda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik tozalikni saqlash hamda energiya samaradorligini oshirish orqali barqaror taraqqiyotga erishishni ko'zda tutadi.


O'zbekiston Respublikasi rivojlanayotgan davlat sifatida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha izchil siyosiy va institutsional choralarni ko'rmoqda. Mamlakatning qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida eskirgan texnologiyalarning keng qo'llanilishi, yuqori darajadagi karbonat angidrid chiqindilari va resurslardan samarasiz foydalanish ekologik muammolarni yanada keskinlashtirmoqda. Shu bois, yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun nafaqat ekologik muvozanatni ta'minlash, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlash vositasi hamdir.

Bugungi kunda mamlakatda yashil texnologiyalarni rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lida xalqaro moliyaviy institutlar, xususiy sektor va davlat o'tasida hamkorlik aloqalari kengaymoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-fevraldagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli<sup>1</sup> qarorida "yashil o'sish" konsepsiysi asosida qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish, barqaror suv resurslari va yaylovlarni boshqarish, energiyani tejovchi texnologiyalarni joriy etish, "yashil" ish o'rinalarini yaratish hamda chiqindilarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.

Shu jumladan, hududlarda 600 dan ortiq chiqindi to'plash shoxobchalarini tashkil etish ekologik xavfsizlikni kuchaytirish bilan birga, aholi ongida atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kabi tashabbuslar zamонавиy infratuzilmani rivojlantirish, chiqindilar hajmini kamaytirish va ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish esa nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki biznes muhitini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanish strategiyasi doirasida dolzarb va ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Mavjud muammolar va ulkan salohiyatni hisobga olgan holda, mamlakat kelgusida ekologik barqaror iqtisodiy modelga muvaffaqiyatli o'tish bo'yicha mintaqaviy ilg'or tajribaga aylanishi mumkin.(1-rasm)

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-fevraldagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori: <https://lex.uz/docs-6303230>



1-rasm. Respublikada chiqindilarni qayta ishlash foizi yillar kesimida.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot masalalari jahon ilmiy hamjamiyatida muhim ilmiy-nazariy va amaliy yo'nalish sifatida keng muhokama qilinmoqda. Global miqyosda iqlim o'zgarishining jadallahuvi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va sanoat faoliyatining ekologik salbiy oqibatlari iqtisodiyotni ekologik jihatdan bardavom modellar assosida shakllantirish zaruratin keltirib chiqarmoqda. Xalqaro tajribada yashil iqtisodiyot kontsepsiysi iqtisodiy o'sish bilan birgalikda atrof-muhit barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan konseptual yondashuv sifatida qaraladi (World Bank, 2020; UNDP, 2022).

Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (ADB) va Xalqaro energetika agentligi (IEA) kabi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan so'nggi hisobotlarda yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy yo'nalishlari – qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya jalb qilish, chiqindilarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish va resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar keng tahlil qilingan. Xususan, Jahon banki (2020) tomonidan e'lon qilingan "Renewable Energy Development in Uzbekistan" nomli tahviliy hisobotda O'zbekistonda yashil energetika bo'yicha salohiyat, moliyaviy resurslar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari atroflicha yoritilgan.

International Energy Agency (IEA, 2021) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston energetika sektorida mavjud infratuzilmaning eskirganligi energiya samaradorligini pasaytirayotgan muhim omil sifatida ko'rsatilib, zamонавиу texnologiyalarni joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP, 2022) tomonidan qishloq xo'jaligida energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash, suv resurslarini oqilona boshqarish va yashil texnologiyalarni mahalliylashtirish bo'yicha amalga oshirilgan loyihibar natijalar bergenini qayd etadi.

Ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan amalga oshirilgan quyosh energiyasi loyihibar O'zbekistonning mintaqaviy energiya bozorida diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda (ADB, 2021).

Tahilliar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga samarali o'tish uchun ekologik, energetik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar o'rtaqidagi uzviy bog'liqlikni hisobga olgan holda kompleks siyosiy yondashuv zarur. Bu borada xalqaro ilmiy tajribadan foydalanish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihibar natijalariga tayanish va milliy strategik hujjatlar asosida izchil faoliyat yuritish muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.



## TADQIQOT METODOLOGIOYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar asosan rasmiy statistik hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, IEA, UNDP) tomonidan taqdim etilgan tahliliy materiallar asosida yig'ildi. Ular statistik va taqqoslash tahlili usullari yordamida qayta ishlanib, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining dolzarbligi va natijadorligi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2021–2024-yillar davomida O'zbekistonda maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. 2021-yilda respublika bo'yicha hosil bo'lgan 7,1 million tonna chiqindining 0,7 million tonnasi, ya'ni 25 foizi qayta ishlangan edi. Bu davrda chiqindilarni saralash va utilizatsiya qilish tizimi asta-sekin shakllanayotgan holatda edi.

2022-yilda esa hududlar kesimida keskin tafovutlar kuzatildi. Jumladan, Andijon viloyatida chiqindilarni qayta ishlash darajasi 45%, Buxoroda 43%, Namangan va Navoiy viloyatlarida esa 36% ni tashkil etdi. Ayni vaqtida, Qoraqalpog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich atigi 10% ga teng bo'ldi. Mazkur yilda hududiy yondashuv kuchaygani sezildi, biroq respublika miqyosida barqaror va bir xil ko'rsatkichga erishilmadi.

2023-yilda Toshkent shahrida qayta ishlash darajasi atigi 18% ni tashkil etgani yirik shaharlarda ham chiqindilar muammosining dolzarbligini ko'rsatadi. Prezident tomonidan bu ko'rsatkichni kamida 50% ga yetkazish bo'yicha topshiriq berilgani tizimda tub islohotlar zarurligini anglatadi.

Afsuski, 2024-yilga kelib, respublika bo'yicha yillik hosil bo'lgan chiqindilar hajmi 14,8 million tonnaga yetgan bo'lsa-da, ulardan faqat 900,5 ming tonnasi, ya'ni 6,1 foizi qayta ishlangan. Bu holat chiqindilarni saralash va utilizatsiya qilish tizimining zaifligini yaqqol ko'rsatadi.

Yuqorida tahlillar shuni ko'rsatadi, so'nggi yillarda chiqindilarni qayta ishlash sohasida rivojlanish emas, balki pasayish tendensiyasi kuzatilmogda. 2021-yildagi 25 foizlik ko'rsatkich 2024-yilda 6 foizgacha kamaygan. Bu esa ikki muhim muammoni yuzaga chiqaradi: birinchidan, yildan-yilga chiqindilar hajmi ortib bormoqda; ikkinchidan, mayjud infratuzilma bu chiqindilarni samarali boshqarish imkoniyatiga ega emas.

Yuqorida muammolar O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini amalda kuchaytirishi, hududlarda chiqindilarni qayta ishlash quvvatlarini oshirishi, ekologik texnologiyalarni joriy etishni va aholining ekologik ongini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni talab etadi. Aks holda, ortib borayotgan chiqindilar nafaqat atrof-muhitga, balki inson salomatligi va iqtisodiy barqarorlikka ham tahdid tug'diradi.

Yashil texnologiyalarni keng joriy etish yo'lida bir qator muhim infratuzilmaviy muammolar mayjud. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan elektr energiyasini iste'molchiga yetkazib berish uchun zarur bo'lgan tarqatish tarmoqlari yetarlicha rivojlanmagan. Elektr energiyasini uzatish tizimining ko'plab qismlari eskirgan bo'lib, zamonaviy talablarga javob bermaydi. Bu esa energiya tarqatish samaradorligini keskin pasaytiradi.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o'ziga xos jihat – ularning ishlab chiqarish hajmining barqaror emasligi (masalan, quyoshli kunlar soni yoki shamol tezligi) energiya tizimi uchun qo'shimcha zaxira quvvatlari, akkumulyatorlar va saqlash texnologiyalariga ehtiyoj tug'diradi. Afsuski, ayni paytda bunday texnologiyalar mamlakatda keng joriy etilmagan, ularning importi esa katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston an'anaviy energiya manbalariga – ko'mir va tabiiy gazga qaram bo'lib qolmoqda. Biroq, 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy taraqqiyotga yo'l ochib beradi. Shu bilan birga, texnologik cheklovlar, moliyaviy resurslar yetishmovchiligi hamda xalqaro investitsiyalarini jalb qilishdagi murakkabliklar mayjud. Masalan, mamlakatdagi elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar ko'p



hollarda eskirgan texnologiyalardan foydalanmoqda, bu esa energiya samaradorligining pastligiga olib kelmoqda.

Xalqaro Energetika Agentligi (International Energy Agency, 2021) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston elektr energiyasi ishlab chiqarish infratuzilmasi modernizatsiyaga muhtoj, chunki mavjud tizim energiya tejamkorligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni yetarli darajada qo'llamaydi.

Aholi va tadbirdorlik subyektlari o'rtaida yashil iqtisodiyotning afzalliklari to'g'risidagi xabardorlik darajasining pastligi ushbu yo'nalishda jiddiy to'siqlardan biri bo'lmoqda. Ogohlikni oshirish uchun zamonaviy va tizimli ta'lim dasturlari zarur. Aksariyat fuqarolar va iqtisodiy subyektlar yashil texnologiyalar, ularning ekologik va iqtisodiy foydasi, shuningdek, uzoq muddatli barqaror rivojlanishdagi o'rni haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Bu holat esa yangi yondashuvlarga nisbatan ishonchszilikni kuchaytirmoqda, konservativ qarorlar va eskicha ishlab chiqarish uslublariga tayanib qolish holatlarini yuzaga keltirmoqda.

Shu sababli, aholining ekologik ongini oshirish va yashil iqtisodiyot g'oyalarini keng targ'ib qilish maqsadida ta'lim tizimi doirasida ko'lamli dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Bunday dasturlar umumiyo'tta ta'lim muassasalaridan tortib, oliy o'quv yurtlari hamda tadbirdorlar va ishbilarmonlar uchun mo'ljallangan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarini ham o'z ichiga olishi zarur. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik tadbirdorlari orqali yashil iqtisodiyot masalalarini muntazam targ'ib qilish katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining ongini o'zgartirish, yashil qadriyatlarni shakllantirish va ekologik mas'uliyatni oshirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratiladi.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishida xalqaro hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Mamlakat BMT, Jahon banki va ekologik yo'nalishda faoliyat yuritayotgan boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirmoqda. Bu esa O'zbekistonga nafaqat moliyaviy resurslar jalb etish, balki ilg'or tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy qilish imkonini ham beradi.

2020-yilda Jahon banki tomonidan O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan loyihalarni rivojlantirish maqsadida \$100 milliondan ortiq mablag' ajratildi (World Bank, 2020). Ushbu mablag' hisobiga mamlakatda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator yirik loyihalarga asos solindi.

2024-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi vakillari Jahon banki missiyasi bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda markazlashgan isitish tizimining energiya samaradorligini oshirish loyihasi hamda quyosh panellarini moliyalashtirish dasturini qo'llab-quvvatlashga doir texnik ko'mak masalalari muhofama qilindi. Shuningdek, 2050-yilgacha isitish tizimi orqali issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish orqali sohani dekarbonizatsiya qilishga qaratilgan texnik-iqtisodiy baholash ishlari ham ko'rib chiqildi<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) O'zbekistonda inqirozga chidamli, hayot sifati yuqori bo'lgan jamiyatni shakllantirish yo'lida faol ishtirok etmoqda. BMTTD bilan hamkorlikda yashil iqtisodiyotga o'tish, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha qator loyihalarni amalga oshirilmoqda.<sup>3</sup>

Yashil iqtisodiyotga muvaffaqiyatli o'tayotgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish O'zbekiston uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Mamlakat o'z sharoitlariga mos holda xorijiy tajribalarni tatbiq etib, texnologik va institutsional yangilanishlarni tezlashtirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Germaniyadan energiya samaradorligini oshirish, Janubiy Koreyadan chiqindilarini qayta ishslash, Xitoydan qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish, Yaponiyadan esa suvni tejash va tomchilatib sug'orish texnologiyalarini o'zlashtirmoqda. Shuningdek, ekologik ta'lim, yashil moliyalashtirish va karbonsiz iqtisodiyotga o'tish strategiyalarini xalqaro tajriba asosida o'ziga xos tarzda amalga oshirilmoqda.

Barqaror rivojlanishga qaratilgan mahalliy tashabbuslarni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy hamjamiyatlar atrof-muhitni muhofaza qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik loyihalarda faol ishtirok etib, bu jarayonlarning asosiy ishtirokchilariga aylanishi mumkin. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va fermerlarni barqaror dehqonchilik amaliyotlariga o'tishda qo'llab-quvvatlash hududiy iqtisodiy faoliy va daromadlarning barqaror

2 [https://gov.uz/imv/news/view/30414?utm\\_source](https://gov.uz/imv/news/view/30414?utm_source)

3 [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-07/ber\\_uzbekistan\\_uz.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2024-07/ber_uzbekistan_uz.pdf)



o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu maqsadda ta'lif va subsidiya dasturlarini joriy etish mahalliy darajadagi innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishni jadallashtiradi.

Yashil iqtisodiyot bilan bog'liq tarmoqlarda mehnat ko'pincha yuqori xavfsizlik va sog'liqni saqlash standartlariga amal qilinishini talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi va ishchilarining malakasining oshishiga olib keladi. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirib boradi, xavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus uskunalar va metodlarni qo'llash bo'yicha bilinga ega bo'ladi.

Yashil iqtisodiyot tarmoqlari ekologik jihatdan barqraror ishslashga yo'naltirilgan bo'lib, bu esa mehnat muhitida zararli moddalar bilan ishslash zaruriyatini kamaytiradi hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni sezilarli darajada pasaytiradi. Ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish natijasida ishchilarning salomatligi muhofaza etiladi, chunki ular toksik moddalar va zararli chiqindilar bilan bevosita aloqaga kirmaydi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida yangi ish o'rirlari yaratiladi, bu esa malakali ishchilarни tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Davlat tomonidan ilgari surilayotgan ekologik va mehnat qonunchiligi esa mehnat sharoitlarini takomillashtirish, xavfsizlik standartlarini kuchaytirish va ishchilarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda innovatsion texnologiyalar, xususan, raqamli yechimlar muhim rol o'yamoqda. Narsalar interneti (IoT) va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalarining joriy etilishi resurslardan samarali foydalanish imkonini oshiradi. Masalan, IoT texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish, energiya sarfini tahlil qilish va tizimlar o'rtasida ma'lumot almashish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Ushbu texnologiyalar orqali resurslarni oqilonqa taqsimlash, isrofgarchilikni kamaytirish va ekologik izni minimallashtirish mumkin. Sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish esa yashil o'sish strategiyalarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi hukumati va BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) hamkorligida 2022-yilda qishloq xo'jaligida zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha bir qator loyihibar amalga oshirildi. Ushbu loyihibar qishloq xo'jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish hamda energiya sarfini kamaytirishga qaratilgan (UNDP, 2022).

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishi – ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan katta foyda keltirishi mumkin bo'lgan murakkab, ammo istiqbolli jarayondir. Biroq bu yo'nalishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, infratuzilmaning yetarli emasligi, aholining xabardorlik darajasining pastligi hamda samarali davlat siyosatining yetarlicha shakllanmaganligi muhim to'siq bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni samarali bartaraf etish uchun davlat tomonidan kompleks yondashuv, kuchli boshqaruv va aniq tartibga solish mexanizmlarini joriy etish talab etiladi.

Davlat siyosatining izchil emasligi va aniq strategik yo'nalishlarning yo'qligi ko'plab hollarda yashil iqtisodiyotga oid investitsiyalarning samarasiz bo'lishiga, resurslarning takroriy sarflanishiga va harakatlarning takrorlanishiga olib kelmoqda. Shu bois, barcha davlat hokimiyati organlarining yagona strategiya asosida o'zaro muvofiqlashtirilgan holda harakat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning muvaffaqiyatlari bo'lishi ko'p jihatdan davlat organlari, xususiy sektor va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik, ochiq muloqot va strategik rejalashtirish darajasiga bog'liq. Bunda huquqiy bazaning takomillashuvi ham muhim o'rinn tutadi. Jumladan, ekologik toza texnologiyalarga sarmoya kiritayotgan kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari, chiqindilar va zararli emissiyalarni kamaytirish bo'yicha majburiyatlar, shuningdek, subsidiya va boshqa rag'batlantiruvchi choralarining mavjudligi bu jarayonni jadallashtiradi.

Ekologik standartlar va normativlar asosida qat'iy majburiyatlarni belgilash, davlat tomonidan monitoring tizimlarini kuchaytirish ham ushbu yo'nalishdagi islohotlarning barqrarligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, strategik hujjatlarda turli sohalar uchun yashil o'sishni ta'minlovchi ko'rsatkichlar va maqsadlar aniq belgilanishi lozim.

Shunga qaramay, mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish borasidagi istiqbollari quvonarli. Xalqaro miqyosda barqraror rivojlanish masalalariga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani va O'zbekistonning bu yo'nalishda o'zgarishlarga tayyorligi mavjud strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ijobjiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Doimiy monitoring, o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanlik va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtiroki O'zbekistonning yashil iqtisodiy rivojlanishga o'tishida asosiy tayanch nuqtalaridan hisoblanadi. Mamlakat nafaqat o'zining ekologik holatini yaxshilash, balki xalqaro maydonda barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyatni ilgari suruvchi yetakchi davlat sifatida o'z o'rmini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

Yashil iqtisodiyotga o'tishda ta'lif va ilmiy tadqiqotlar tayanch omillardan biridir. Ta'lif va ilmiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratadi. Shuningdek, barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot masalalarini ta'lif tizimining barcha bosqichlariga integratsiyalash zarur. Bu esa yosh avlodni ekologik muammolar va iqtisodiyotning yangi tarmoqlari haqida xabardor etish, ularni amaliy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkonini beradi.

Strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, biznes, ilmiy doiralar va fuqarolik jamiyati vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirish zarur. Har bir fuqaro bu jarayonda o'zini daxldor deb his qilishi, yashil qadriyatlarni qabul qilgan holda faol ishtirok etishi uchun keng imkoniyat va zarur sharoitlar yaratilishi kerak.

Ekologik tashabbuslarni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki muhim o'rinn tutadi. Chunki fuqarolar va mahalliy jamoalar o'z faoliyati orqali yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Ko'ngillilar harakati va mahalliy jamoalar tomonidan amalga oshiriladigan ekologik loyihalar, jumladan, obodonlashtirish, tozalash va ma'rifiy tadbirlar jamoatchilik ongini oshirishda va atrof-muhit uchun mas'uliyat hissini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Jamoatchilikni ekologik tashabbuslarga keng jalb qilish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Ushbu dasturlar fuqarolarni obodonlashtirish, tozalash, ekologik ta'lif va ommaviy ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishga rag'batlantirishi kerak. Bu kabi faoliyatlar nafaqat atrof-muhit holatini yaxshilaydi, balki fuqarolarda ekologik ongni mustahkamlab, ularni mas'uliyatli turmush tarziga o'tishga undaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va tashabbuskor guruhlar barqaror rivojlanish loyihalarini amalga oshirishda muhim ijtimoiy hamkorlarga aylanmoqda. Ularning ekologik tashabbuslarga qo'shayotgan hissasi, jamoatchilikni faollashtirish va mavjud resurslarni samarali taqsimlashdagi roli beqiyosdir. Bunday tashkilotlarni moliyalashtirish va texnik resurslar bilan qo'llab-quvvatlash ularning ta'sir doirasini kengaytiradi. Xususan, ekologik ta'lif dasturlarini amalga oshirish, mahalliy resurslarni oqilona taqsimlash va yangi tashabbuslarni ilgari surish uchun bu kabi subyektlarga tizimli yondashuv zarur.

Nodavlat tashkilotlari va tashabbuskor guruhlar ko'ngillilar bilan hamkorlikda davlat ekologik siyosatini amaliyatga tatbiq etishda hamda mahalliy jamoalar bilan bevosita ishslashda samarali vositaga aylanadi. Ular orqali ekologik muammolar yechimida jamiyatda birdamlik va ijtimoiy ishonch shakllanadi.

Bir paytlar dunyodagi eng yirik ichki suv havzalaridan biri bo'lgan Orol dengizi bugungi kunda keskin ekologik muammolar girdobiga tushgan. Suv sathining pasayishi, ekotizimning yemirilishi va bu holatning mahalliy aholi salomatligiga salbiy ta'siri vaziyatni jiddiylashtirmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida Orol dengizi mintaqaviy barqaror rivojlanish uchun bir vaqtning o'zida ham muammo, ham imkoniyat sifatida qaralmoqda.

Orol dengizi O'rta Osiyodagi keng ko'lamli qishloq xo'jaligi sug'orish amaliyotlari tufayli katta zarar ko'rgan. Bu jarayon natijasida suv hajmining keskin kamayishi va suv sifati yomonlashgan. 1960-yilda boshlangan jarayon davomida Orol dengizining suv sathi 60% dan ortiq darajada pasayib ketdi. Bu holat baliqchilikning butunlay yo'qolishiga, biologik xilma-xillikning kamayishiga va ekotizimlar buzilishiga olib keldi.

Dengiz tubida yig'ilgan tuz va zaharli moddalar havoga ko'tarilib, nafaqat ekologik muhitga, balki mahalliy aholi salomatligiga ham tahdid tug'dirmoqda. Havo ifloslanishi, yerning qurg'oqchil holatga kelishi va boshqa ekologik omillar mintaqada yashovchi aholining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Orolbo'yи hududlarida baliqchilik va dehqonchilikning keskin qisqarishi ish o'rinalarining yo'qolishiga hamda iqtisodiy barqarorlikning zaiflashishiga sabab bo'lgan. Mahalliy aholi hayotining asosan qishloq



xo'jaligiga bog'liqligi inobatga olinsa, bu sohalardagi tanazzul ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Hosildorlikning pasayishi va daromad manbalarining yo'qolishi fuqarolarning turmush darajasini pasaytirgan.

Bundan tashqari, Orol dengizining ifloslanishi va suv resurslarining tanqisligi mahalliy aholining salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi o'rtaida kasallanish holatlarining ko'payishi, ayniqsa, ichimlik suvi ta'minotidagi uzilishlar, havodagi zararli moddalarning ortishi bilan bog'liq. Natijada, sog'liqni saqlash tizimiga tushayotgan yuk ortib bormoqda.

Shu bois, Orolbo'yи ekologik fojasi global va milliy miqyosda birgalikda hal etilishi lozim bo'lgan strategik masalaga aylangan. Ekologik tozalash, barqaror iqtisodiy rivojlanish va aholining salomatligini tiklash bo'yicha kompleks va uzviy choralar talab etiladi.

Orol dengizi Markaziy Osiyo ekologik va iqtisodiy xavfsizligining muhim omillaridan biridir. Yashil iqtisodiyotga o'tish bu mintaqaning tiklanishida kalit rol o'ynashi mumkin. Barqaror texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga asoslangan kompleks chora-tadbirlar ekotizimni tiklash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi bu yo'naliшda muhim siyosiy tashabbus bo'lib, mamlakat uchun nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini ham beradi. Strategiyaning asosiy maqsadlari energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishdir.

Hozirda O'zbekiston ushbu yo'naliшda izchil rivojlanib bormoqda, biroq texnologik, moliyaviy va infratuzilmaviy cheklovlar bu jarayonning sekinlashishiga sabab bo'immoqda. Shunga qaramay, mavjud tabiiy resurslar salohiyati va xalqaro hamkorlikning kengayib borayotgani tufayli mavjud to'siqlarni bosqichma-bosqich yengib o'tish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday texnologik va moliyaviy cheklovlarg'a qaramay, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan samarali foydalanish orqali bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtirish mumkin.

O'zbekistonning tabiiy resurslari, ayniqsa quyosh va shamol energetikasi salohiyati, mamlakatni Markaziy Osiyo mintaqasida yashil iqtisodiyot yo'naliшida yetakchiga aylantirishi mumkin. Shu bois, "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish yo'lida keng istiqbollar mavjud.

Bundan tashqari, Orol dengizi bilan bog'liq ekologik falokat va ushbu mintaqadagi chuqurlashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o'tishni nafaqat dolzarb, balki zarur jarayon sifatida belgilab bermoqda. Barqaror energiya manbalaridan foydalanish va ekologik xavfsizlikni kuchaytirish orqali nafaqat ekologik muvozanat tiklanadi, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligi ham mustahkamlanadi.

Shu tariqa, "Yashil iqtisodiyot" strategiyasining izchil va tizimli amalga oshirilishi O'zbekistonning kelajakdag'i ekologik xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati

1. International Energy Agency. Uzbekistan's Energy Profile and Challenges. Paris: IEA Publications, 2021. – bet 28–32.
2. World Bank. Renewable Energy Development in Uzbekistan: Opportunities and Investments. Washington: World Bank Group, 2020. – bet 17–23.
3. Asian Development Bank. Solar Power Projects in Uzbekistan: Investment and Impact. Manila: ADB, 2021. – bet 45–50.
4. UNDP. Energy Efficiency in Uzbekistan's Agriculture: Progress Report. New York: United Nations Development Programme, 2022. – bet 58–64.



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi. Toshkent, 2019. – bet 35–42.
6. Jahon banki. O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish strategiyasi. Vashington: Jahon banki, 2020. – bet 15–18.
7. <https://gov.uz/oz/imv/news/view/30414>
8. [https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/202407/ber\\_uzbekistan\\_uz.pdf](https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/202407/ber_uzbekistan_uz.pdf)

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

**2025. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait\_2100